



## PSYCHOLOGY OF CORRUPT BEHAVIOR AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROFESSIONAL CONSCIOUSNESS DEFORMATION

*Akhmad Kamilkhanovich Tursunov*  
Researcher, Department of Pedagogical Education  
National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Corruption, behavior, professional consciousness, deformation, self-interest, public service, disposition, motivation, values, success, ethics, control.

**Received:** 23.05.26

**Accepted:** 24.05.26

**Published:** 25.05.26

**Abstract:** This article analyzes the socio-psychological roots of corrupt behavior, the deformation of professional consciousness, and the mechanisms behind the formation of self-interest motivation in the activities of public servants. Corruption is interpreted not only as a legal violation but also as a complex outcome of interrelations between personal needs, dispositional attitudes, group environment, the ideology of success, and moral choice.

## KORRUPSION XULQ-ATVOR PSIXOLOGIYASI VA KASBIY ONG DEFORMATSIYASINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI

*Axmad Kamilxanovich Tursunov*  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Pedagogik ta'lim kafedrasida tadqiqotchisi  
Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, xulq-atvor, kasbiy ong, deformatsiya, manfaatparastlik, davlat xizmati, dispozitsiya, motivatsiya, qadriyat, muvaffaqiyat, axloq, nazorat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada korrupsion xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik ildizlari, kasbiy ong deformatsiyasi hamda davlat xizmatchisi faoliyatida manfaatparastlik motivining shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda korrupsiya faqat huquqiy buzilish emas, balki shaxsiy ehtiyojlar, dispozitsion ustanovkalar, guruhviy muhit, muvaffaqiyat ideologiyasi va axloqiy tanlov o'rtasidagi murakkab munosabatlar mahsuli sifatida talqin etiladi.

**ПСИХОЛОГИЯ КОРРУПЦИОННОГО ПОВЕДЕНИЯ И СОЦИАЛЬНО-  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ДЕФОРМАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО  
СОЗНАНИЯ**

*Ахмад Камильханович Турсунов*

*Исследователь кафедры педагогического образования*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** коррупция, поведение, профессиональное сознание, деформация, корысть, государственная служба, диспозиция, мотивация, ценности, успех, этика, контроль.

**Аннотация:** В данной статье анализируются социально-психологические корни коррупционного поведения, деформация профессионального сознания, а также механизмы формирования мотива корыстной заинтересованности в деятельности государственных служащих. Коррупция рассматривается не только как правовое нарушение, но и как сложный результат взаимодействия личных потребностей, диспозиционных установок, групповой среды, идеологии успеха и нравственного выбора.

---

**Kirish.** Korrupsiya zamonaviy jamiyatda faqat huquqiy yoki iqtisodiy muammo sifatida emas, balki shaxs ongida, kasbiy qadriyatlar tizimida va ijtimoiy munosabatlar muhitida shakllanadigan murakkab psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat xizmatida korrupsion xulq-atvorning yuzaga kelishi shaxsiy manfaat, mansab vakolati, axloqiy tanlov, guruhiy bosim va muvaffaqiyatga intilish motivlari bilan uzviy bog‘liq. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashda uning ijtimoiy-psixologik asoslarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi.** Tadqiqot davomida foydalangan adabiyotlarimiz korrupsion xulq-atvorni faqat huquqiy buzilish sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik, axloqiy va madaniy hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi. G. Satarov korrupsiyani davlat xizmati va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar tizimida inson omilini hisobga olgan holda o‘rganish zarurligini asoslaydi. K. Marks pulning ijtimoiy qudratini ochib berib, manfaatparastlik motivatsiyasining iqtisodiy-psixologik asoslarini tushuntirishga xizmat qiladi. M. Fuko jinoyatni tug‘ma mayl emas, balki ijtimoiy tartib va hokimiyat munosabatlari bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. V.A. Yadovning dispozitsion nazariyasi esa shaxs xulq-atvorining ustanovkalar, ehtiyojlar va qadriyatlar orqali tartibga solinishini ko‘rsatadi. R. Merton muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan jamiyatda maqsad va vositalar ziddiyatini ochib beradi. Ushbu manbalar maqolaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ko‘plab davlat dasturlarining kutilgan natijani bermasligi, bizningcha, korrupsion munosabatlarning faqat huquqiy, tashkiliy yoki institutsional jihatlar bilan cheklangan holda talqin qilinishi, ularning ijtimoiy-psixologik asoslari esa yetarlicha chuqur o‘rganilmagani bilan bevosita bog‘liq. Chunki korrupsiya faqat normativ-huquqiy tartib buzilishi emas, balki shaxs ongida shakllanadigan axloqiy tanazzul, kasbiy mas‘uliyatning susayishi, manfaatlar iyerarxiasining buzilishi va ijtimoiy muhit ta‘sirida yuzaga keladigan murakkab psixologik hodisadir. Shu ma‘noda korrupsion xulq-atvorning paydo bo‘lishi va barqarorlashuvida shaxsiy manfaatdorlik, mansab vakolatidan foydalanish ehtimoli, jazodan qochish illyuziyasi, guruhviy muhitga moslashish, “hamma shunday qiladi” degan stereotipik qarash, shuningdek, kasbiy ong deformatsiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Mas‘ul lavozimni egallagan shaxsning noqonuniy xatti-harakatga qo‘l urishi har doim ham faqat tashqi sharoitlar yoki moddiy manfaat bilan izohlanmaydi. Bunda ichki psixologik motivlar, axloqiy o‘zini oqlash mexanizmlari, javobgarlik hissining pasayishi, mansabiy imkoniyatni shaxsiy imtiyoz sifatida qabul qilish, hokimiyat va nazorat resurslariga nisbatan noto‘g‘ri munosabat kabi omillar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shu sababli korrupsiyaga qarshi siyosat faqat jazolash, nazoratni kuchaytirish yoki ma‘muriy cheklovlar bilan chegaralanmasligi, balki shaxsning kasbiy ongini, axloqiy pozitsiyasini, ijtimoiy mas‘uliyatini va huquqiy madaniyatini shakllantirishga ham qaratilishi lozim. Shu bilan birga, jamiyatda yuzaga keladigan ayrim ijtimoiy-psixologik jarayonlar – jamoatchilik nazoratining kuchayishi, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik kayfiyatining shakllanishi, ijtimoiy ishonch va axloqiy bosimning ortishi – korrupsion xatti-harakatlarning tabiiy ravishda kamayishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Korrupsiyaning psixologik tabiatini o‘rganish zarurligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan alohida ta‘kidlangan. Xususan, INDEM jamg‘armasi rahbari G. Satarov Rossiyadagi korrupsiya holatini keng ko‘lamda tahlil qilar ekan, davlat xizmatchilari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etishda inson omilini e‘tibordan chetda qoldirmaslik lozimligini qayd etadi. Uning fikricha, muhandislar samolyot kabinasini loyihalash jarayonida insonning fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olganidek, davlat boshqaruvi tizimida ham fuqarolar hamda mansabdor shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni belgilashda ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari chuqur inobatga olinishi zarur. Bu yondashuv korrupsiyaga qarshi

kurashni faqat tashqi nazorat tizimi sifatida emas, balki inson xulq-atvori, kasbiy ong, ijtimoiy muhit va axloqiy tanlov mexanizmlarini qamrab oluvchi kompleks ilmiy-amaliy jarayon sifatida tushunish kerakligini ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlarda "har bir", "har qanday", "barcha" kabi mutlaq umumlashtiruvchi iboralardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Bunday ifodalar ijtimoiy-siyosiy munozaralarda yoki publitsistik nutqda ta'sirchanlikni oshirishi mumkin, biroq ilmiy tahlilda ular hodisaning ichki murakkabligini soddalashtirib yuborish xavfini tug'diradi. Korrupsiya, shubhasiz, keng qamrovli ijtimoiy hodisa bo'lib, uning jamiyatdagi tarqalish darajasi, barqarorlashuv omillari va takror ishlab chiqarilish mexanizmlarini faqat huquqiy yoki iqtisodiy yondashuvlar bilan to'liq izohlab bo'lmaydi. Bu jarayonni chuqur anglash uchun korrupsion xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik asoslarini, ya'ni shaxsning motivatsiyasi, axloqiy tanlovi, guruhviy muhit ta'siri, kasbiy ong deformatsiyasi va ijtimoiy me'yorlarga moslashuv mexanizmlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, korrupsiyaning keng tarqalganligi jamiyatdagi barcha shaxslar korrupsion munosabatlarga muqarrar ravishda jalb etiladi, degan xulosani bermaydi. Hatto korrupsiya chuqur ildiz otgan sohalarda ham hamma insonlar noqonuniy manfaat almashinuvi tizimida ishtirok etavermaydi. Xuddi jinoyi muhit mavjud bo'lgan sharoitda ham barcha shaxslar o'g'ri, firibgar yoki zo'ravon jinoyatchiga aylanib qolmagani kabi, korrupsiyalashgan muhit ham inson xulq-atvorini avtomatik tarzda belgilab bermaydi. Bu yerda shaxsiy tanlov, axloqiy barqarorlik, huquqiy ong, kasbiy mas'uliyat va ijtimoiy nazorat darajasi muhim o'rin tutadi. Psixologiya fani aynan shu jihatdan ahamiyatlidir: u shaxs nima sababdan muayyan vaziyatda halol yo'lni yoki g'arazli manfaat yo'lni tanlashini, ijtimoiy bosim, imkoniyat, manfaat va javobgarlik o'rtasidagi ichki ruhiy kurash qanday kechishini tushuntirish imkonini beradi.

Davlat xizmati o'z mohiyatiga ko'ra shaxsdan yuqori darajadagi ijtimoiy-psixologik, kasbiy-ruhiy va axloqiy fazilatlarni talab qiladigan faoliyat turidir. Davlat xizmatchisi nafaqat ma'muriy vakolat egasi, balki jamiyat nomidan qaror qabul qiluvchi, fuqarolar manfaatini himoya qiluvchi va jamoat ishonchini ifodalovchi subyekt hisoblanadi. Shu sababli davlat xizmatida kompetentlik, mas'uliyatlilik, kasbiy mahorat, insonlar bilan ishlash madaniyati, muloqotga tayyorlik, tezkor va asosli qaror qabul qilish, tashabbuskorlik, ijro intizomi, qarorlar oqibatini oldindan ko'ra bilish, nizoli vaziyatlarda muvozanatni saqlash kabi fazilatlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu xususiyatlar davlat xizmatchisining faqat kasbiy samaradorligini emas, balki uning axloqiy-huquqiy barqarorligini ham belgilaydi.

Tashqi ko'rinishidan davlat xizmati ayrim texnologik, tashkiliy va boshqaruv usullari jihatidan tijorat tashkilotlaridagi faoliyatga o'xshab ketishi mumkin. Har ikkala sohada ham

rejalashtirish, boshqarish, hujjatlar bilan ishlash, ijro intizomi, natijadorlik va mas'uliyat talab etiladi. Biroq davlat xizmatining tub mohiyati tijorat faoliyatidan keskin farq qiladi. Tijorat tuzilmasida faoliyatning asosiy maqsadi iqtisodiy foyda va tashkilot manfaatini ta'minlash bo'lsa, davlat xizmatining asosiy vazifasi jamoat manfaatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, ijtimoiy adolat hamda qonuniylik tamoyillariga xizmat qilishdan iborat. Aynan shu jihat davlat xizmatchisining kasbiy ongida alohida axloqiy mezonni shakllantiradi. U o'z vakolatini shaxsiy boyish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy burch, huquqiy mas'uliyat va jamoatchilik ishonchi bilan bog'liq xizmat shakli sifatida anglamog'i lozim.

Shu nuqtayi nazardan davlat xizmatida qonuniylik va axloqiy me'yorlarga rioya qilishga psixologik tayyorgarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki korrupsion vaziyat ko'pincha faqat tashqi imkoniyat mavjudligi tufayli emas, balki shaxsning ichki tayyorgarligi, axloqiy immuniteti, manfaat va burch o'rtasidagi tanlovni qanday hal qilishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Agar mansabdor shaxs davlat vakolatini shaxsiy manfaatga xizmat qildirish mumkin bo'lgan resurs sifatida qabul qilsa, uning kasbiy ongi deformatsiyaga uchraydi. Bunday deformatsiya natijasida xizmat burchi, fuqarolar oldidagi javobgarlik, qonuniylik va adolat mezonlari ikkinchi darajaga tushib, ularning o'rnini shaxsiy manfaat, mavqe, moddiy foyda va norasmiy aloqalar egallay boshlaydi.

Davlat xizmatchisining ideal kasbiy qiyofasi qonunga sodiqlik, jamoat manfaatiga xizmat qilish va axloqiy mas'uliyat bilan tavsiflansa, korrupsiyaga moyil amaldorning asosiy belgisi qonunni buzishga ichki tayyorlik hamda mansab vakolatidan g'arazli maqsadda foydalanish istagidir. Korrupsion xulq-atvorning markazida ko'pincha manfaatparastlik motivatsiyasi yotadi. Manfaatparastlik axloqiy sifat sifatida shaxsning voqelikni, munosabatlarni va o'z xatti-harakatlarini asosan moddiy foyda nuqtayi nazaridan baholashida namoyon bo'ladi. Bunday holatda inson uchun kasbiy burch, jamiyat manfaatlari yoki qonuniylik mezonlari emas, balki o'ziga bevosita yoki bilvosita foyda keltiruvchi natija ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy nuqtayi nazardan manfaatparastlik motivi noqonuniy yo'l bilan moddiy yoki boshqa turdagi manfaat qo'lga kiritishga intilishda ifodalanadi. Pora olish yoki berish, noqonuniy lobbi yuritish, proteksionizm, lavozim orqali homiylik qilish, turli "maqsadli jamg'armalar" ni shaxsiy manfaatga xizmat qildirish, imtiyozlarni tanish-bilishchilik asosida taqsimlash, davlat amaldorlarining o'z vakolatidan foydalanib keyinchalik yuqori daromadli tijorat tuzilmalariga o'tishi kabi holatlar korrupsion manfaatparastlikning turli ko'rinishlaridir. Ularning barchasida umumiy psixologik asos mavjud: mansab vakolati jamoat manfaatiga xizmat qilish vositasi sifatida emas, balki shaxsiy foyda olish imkoniyati sifatida talqin qilinadi.

Ba'zan korrupsion manfaat bevosita pul shaklida emas, balki "sovg'a", "hurmat belgisi", "minnatdorchilik ifodasi" yoki "madaniy ehtirom" ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday holat korrupsiyaning psixologik jihatdan murakkabligini ko'rsatadi. Masalan, qimmatbaho san'at asari ko'rinishidagi sovg'a tashqi tomondan amaldorning estetik didini qadrlash yoki uning san'atga bo'lgan qiziqishini e'tirof etish sifatida talqin qilinishi mumkin. Ammo mazkur sovg'a muayyan qarorga ta'sir o'tkazish, imtiyozga ega bo'lish yoki mansabdor shaxsning moyilligini shakllantirish maqsadida berilgan bo'lsa, u mohiyatan korrupsion manfaat almashinuvi tizimining bir qismiga aylanadi. Demak, korrupsiyada manfaatparastlik har doim ham ochiq va qo'pol shaklda emas, balki ramziy, madaniy, norasmiy yoki psixologik jihatdan niqoblangan shakllarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Korrupsionerning g'arazli motivatsiyasida pul universal vosita sifatida alohida o'rin tutadi. Chunki pul nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish, balki mavqe, ta'sir, aloqalar, siyosiy imkoniyat, madaniy resurs va ijtimoiy ustunlikka ega bo'lish vositasi sifatida ham idrok etiladi. K. Marks pulning ijtimoiy qudratini tahlil qilar ekan, uning inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi, insonning o'zi bajara olmaydigan ko'plab harakatlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlagan edi. Shu ma'noda korrupsion ongda pul oddiy almashinuv vositasi bo'lib qolmaydi; u hokimiyatga, ta'sirga, ijtimoiy ustunlikka va noqonuniy imkoniyatlarga yo'l ochuvchi psixologik ramzga aylanadi. Aynan shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashda faqat huquqiy jazo mexanizmlarini kuchaytirish yetarli emas. Buning bilan birga davlat xizmatchisining kasbiy ongini sog'lomlashtirish, manfaatparastlik motivatsiyasiga qarshi axloqiy-psixologik immunitetni shakllantirish, jamoat manfaatiga xizmat qilish g'oyasini ichki qadriyat darajasiga ko'tarish zarur .

Korrupsioner shaxsni faqat ochko'z, manfaatparast, axloqiy jihatdan tuban va ongli ravishda jinoyat sodir etishga moyil subyekt sifatida tasvirlash ilmiy jihatdan yetarli emas. Bunday yondashuv korrupsion xulq-atvorning murakkab psixologik, ijtimoiy va kasbiy omillarini soddalashtirib yuboradi. Albatta, korrupsiyada g'arazli manfaat, qonunni buzishga tayyorlik va shaxsiy foyda olish istagi muhim rol o'ynaydi. Biroq zamonaviy davlat xizmati tizimida korrupsion xatti-harakat ko'pincha ochiq jinoyatchilik psixologiyasidan emas, balki kasbiy ongning asta-sekin deformatsiyalanishi, xizmat vakolatini noto'g'ri talqin qilish, norasmiy ijtimoiy me'yorlarga moslashish va manfaatni axloqiy jihatdan oqlash mexanizmlaridan kelib chiqadi. Shu sababli korrupsioner obrazini faqat "ashaddiy jinoyatchi" sifatida talqin qilish hodisaning haqiqiy psixologik ildizlarini ochib berishga imkon bermaydi.

M. Fuko jinoyatni inson qalbiga tabiatan singdirilgan, har qanday vaziyatda foyda yoki ehtiros orqali yuzaga chiqadigan doimiy mayl sifatida tushunish to'g'ri emasligini ta'kidlaydi .

Bu fikr korrupsion xatti-harakatni ham tugʻma yoki oʻzgarimas shaxsiy xususiyat sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy sharoitlar, hokimiyat munosabatlari, kasbiy muhit, imkoniyatlar tizimi va shaxsiy tanlov mexanizmlari orqali shakllanadigan murakkab hodisa sifatida oʻrganish zarurligini koʻrsatadi. Demak, asosiy masala shundan iboratki, davlat xizmatida qonun-qoidalarni buzishga psixologik tayyorgarlik qanday shakllanadi, shaxsda korrupsion amaliyotlarga nisbatan ichki moyillik qayerdan paydo boʻladi va bu moyillik qanday ijtimoiy-psixologik omillar taʼsirida barqarorlashadi. Davlat xizmatida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali tizim aynan shu savollarga ilmiy asoslangan javob topishga bogʻliq.

Korrupsion amaliyotlarga jalb boʻlish shaxsning bunday amaliyotlarga nisbatan tayyorligi, ularni qabul qilish darajasi va muayyan vaziyatda qanday xatti-harakatni tanlashini belgilovchi ijtimoiy-psixologik tuzilmalar bilan bevosita bogʻliq. Mazkur tuzilmalar majmuasi shaxsning dispozitsion tizimini tashkil etadi. Dispozitsion tizim deganda shaxsning muayyan vaziyatni idrok etishi, baholashi va unga nisbatan xatti-harakat strategiyasini tanlashini ichki jihatdan boshqarib turuvchi psixologik tayyorgarliklar, ustanovkalar, qadriyat yoʻnalishlari va motivatsion moyilliklar majmui tushuniladi. Bu tizim shaxs xulq-atvorining tasodifiy emas, balki maʼlum darajada oldindan shakllangan ichki yoʻnalishga ega ekanligini koʻrsatadi.

V.A. Yadovning dispozitsion konsepsiyasiga koʻra, bunday tizimning asosiy vazifasi subyektning ijtimoiy muhitdagi faoliyati va xulq-atvorini ruhiy jihatdan tartibga solishdan iborat. Yaʼni inson muayyan vaziyatda faqat tashqi sharoitga mexanik tarzda javob bermaydi; u avvalgi tajribasi, ehtiyojlari, qadriyatlari, ijtimoiy mavqei, guruhiiy aloqalari va kasbiy ustanovkalari asosida harakat qiladi. Dispozitsiyalar insonning faoliyat sharoitlarini idrok etishga, ularga maʼlum maʼno berishga va xatti-harakat yoʻnalishini tanlashga tayyorligini ifodalaydi. Shu jihatdan ular shaxsning real xatti-harakatini boshqaruvchi ichki psixologik dastur vazifasini bajaradi.

Shaxsning dispozitsion tizimi uning dolzarb ehtiyojlari bilan ushbu ehtiyojlarni qondirish imkonini beruvchi real ijtimoiy sharoitlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabat jarayonida shakllanadi. Masalan, mansabdor shaxsda moddiy manfaat, ijtimoiy mavqe, hokimiyatdan foydalanish yoki oʻz guruhiga sodiqlik ehtiyoji mavjud boʻlishi mumkin. Agar xizmat muhiti bu ehtiyojlarni noqonuniy yoki norasmiy yoʻl bilan qondirishga imkon bersa, bunday vaziyatlar muntazam takrorlangani sari shaxsda tegishli psixologik tayyorgarlik shakllanadi. Dastlab tasodifiy yoki vaziyatga bogʻliq boʻlgan moyillik keyinchalik barqaror ustanovkaga aylanishi mumkin. Natijada shaxs korrupsion vaziyatni gʻayrioddiy jinoyat sifatida emas, balki odatiy, “tizimga mos”, “hamma qiladigan” yoki “zaruriy” amaliyot sifatida qabul qila boshlaydi.

Vaziyatlarning muntazam takrorlanishi va faoliyatning muayyan ijtimoiy sharoitlarda kechishi shaxs psixikasida barqaror dispozitsiyalarni shakllantiradi. Bu dispozitsiyalar keyinchalik inson xulq-atvorini tartibga soluvchi va yo'naltiruvchi omilga aylanadi. Korrupsion muhitda bunday jarayon ayniqsa xavflidir. Chunki shaxs noqonuniy harakatni bir marta sodir etgani uchun emas, balki uni ichki jihatdan oqlash, normallashtirish va takrorlashga tayyor bo'lib borgani uchun korrupsion xulq-atvor subyektiga aylanadi. Shu ma'noda korrupsiya faqat alohida huquqbuzarlik emas, balki shaxsning kasbiy ongida yuz beradigan qadriyatli-psixologik siljishlar natijasi hamdir.

V.A. Yadov taklif etgan dispozitsion tizim aniq iyerarxik tuzilishga ega. Uning quyi darajasida anglanmagan yoki sust anglangan ustanovkalar joylashadi. Bular shaxsning muayyan predmetli vaziyatga nisbatan tezkor, bevosita va ko'pincha refleksiv tarzda yuzaga keladigan reaksiyalarini ifodalaydi. Masalan, mansabdor shaxsning ma'lum bir sovg'ani "oddiy hurmat belgisi" sifatida qabul qilishi, hujjatni tezlashtirish evaziga norasmiy minnatdorchilikni tabiiy deb bilishi yoki tanish-bilishchilik asosidagi iltimosni xizmat madaniyatining bir qismi sifatida baholashi bunday quyi darajadagi ustanovkalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ular har doim ham shaxs tomonidan aniq anglanmaydi, biroq xatti-harakatga dastlabki yo'nalish beradi.

Biroq quyi darajadagi dispozitsiyalar doimiy va tipologik xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Ular ko'proq muayyan vaziyat, tashqi ta'sir, kayfiyat yoki bevosita sharoit bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Shu sababli ular korrupsioner shaxsning barqaror ijtimoiy-psixologik qiyofasini to'liq belgilab bermaydi. Korrupsion xulq-atvorning chuqurroq asoslari yuqori darajadagi dispozitsiyalarda, ya'ni shaxsning ijtimoiy ustanovkalari, guruhiiy mansublik hissi, kasbiy qadriyatlari va hayotiy maqsadlari tizimida namoyon bo'ladi.

Dispozitsion tizimning yuqori darajasini shaxsning birlamchi va boshqa bevosita ijtimoiy guruhlariga kirishi natijasida shakllanadigan barqaror ijtimoiy ustanovkalar tashkil etadi. Bunday guruhlariga oila, do'stlar davrasi, kasbiy jamoa, rahbar-xodim munosabatlari, norasmiy aloqalar tarmog'i va mansabdorlar muhitini kiritish mumkin. Agar ushbu guruhlarda "lavozimdan foydalanish tabiiy", "imkoniyat borida foyda olish kerak", "qonun hamma uchun bir xil ishlamaydi", "sovg'a olish jinoyat emas", "tanish-bilishsiz ish bitmaydi" kabi qarashlar odatiy me'yor sifatida qabul qilinsa, ular shaxsning kasbiy ongiga asta-sekin singib boradi. Natijada korrupsion xatti-harakat alohida axloqiy buzilish emas, balki guruhiiy muhit tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan amaliyot sifatida namoyon bo'ladi.

Dispozitsion tizimning eng yuqori darajasini esa shaxsning hayotiy maqsadlari, qadriyat yo'nalishlari va bu maqsadlarga erishish vositalari haqidagi umumiy tasavvurlari tashkil etadi. Aynan shu darajada inson hayotda nimani asosiy qadriyat deb bilishi, muvaffaqiyatni qanday

tushunishi, mansabni qanday idrok etishi, boylik va hokimiyatga qanday munosabatda bo'lishi, jamoat manfaatini shaxsiy manfaat bilan qanday muvofiqlashtirishi aniqlanadi. Agar shaxsning qadriyatlar tizimida moddiy foyda, ijtimoiy ustunlik, shaxsiy manfaat va hokimiyatga yaqinlik halollik, qonuniylik, adolat va xizmat burchidan ustun qo'yilsa, korrupsion xatti-harakat uchun ichki psixologik zamin yuzaga keladi.

Oliy dispozitsiyalar ijtimoiy sharoitlar ta'sirida shakllangani uchun ular tarixiy va ijtimoiy jihatdan o'zgaruvchidir. Jamiyatda huquqiy madaniyat, jamoatchilik nazorati, axloqiy talabchanlik, davlat xizmatining ochiqligi va shaffofligi kuchaysa, shaxslarning korrupsion amaliyotlarga nisbatan psixologik munosabati ham o'zgarishi mumkin. Aksincha, korrupsiyaga nisbatan befarqlik, jazodan qochish imkoniyati, mansabdan shaxsiy manfaat uchun foydalanishning norasmiy tarzda oqlanishi va guruhiiy himoya mexanizmlari kuchli bo'lsa, korrupsion dispozitsiyalar barqarorlashadi. Demak, korrupsiyaga qarshi kurash shaxsni faqat jazolash emas, balki uning dispozitsion tizimiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, axloqiy, kasbiy va institutsional sharoitlarni o'zgartirishni ham talab qiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, korrupsion xulq-atvorning psixologik tayyorgarligi birdaniga paydo bo'lmaydi. U shaxsiy ehtiyojlar, kasbiy muhit, ijtimoiy me'yorlar, guruhiiy munosabatlar, qadriyat yo'nalishlari va takrorlanuvchi vaziyatlar ta'sirida bosqichma-bosqich shakllanadi. Korrupsiyaga moyillikning tub ildizi shaxsning faqat ochko'zligida emas, balki uning ongida xizmat burchi bilan shaxsiy manfaat, qonuniylik bilan norasmiy me'yor, jamoat manfaati bilan individual foyda o'rtasidagi nisbatning buzilishidadir. Shu bois korrupsiyaning oldini olishda huquqiy nazorat bilan bir qatorda kasbiy ongni sog'lomlashtirish, qadriyatlar tizimini mustahkamlash, davlat xizmatining axloqiy mazmunini kuchaytirish va korrupsion amaliyotlarni "normal holat" sifatida qabul qilishga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik dispozitsiyalarni zaiflashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Korrupsion xulq-atvorning psixologik asosida manfaatparastlik muhim va deyarli universal motiv sifatida namoyon bo'ladi. "Boylik orttirish", "moddiy farovonlikka erishish", "mavqe va imkoniyatlarni shaxsiy manfaatga yo'naltirish" kabi maqsadlar tarixning turli davrlarida poraxo'r amaldorlar xatti-harakatining asosiy ichki turtkilaridan biri bo'lib kelgan. Biroq bu maqsadlarning shaxs ongidagi o'rni, ularning ijtimoiy qadriyatlar tizimiga qo'shilish shakli va axloqiy jihatdan oqlanish usullari tarixiy jihatdan o'zgaruvchan xarakterga ega. Demak, manfaatparastlik inson xulq-atvorida doimiy uchrashi mumkin bo'lgan motiv bo'lsa-da, uning qanday ijtimoiy shaklda namoyon bo'lishi muayyan davrning madaniy, iqtisodiy va institutsional sharoitlari bilan belgilanadi.

Zamonaviy dinamik jamiyatda shaxs faoliyatini yoʻnaltiruvchi eng muhim motivatsion modellaridan biri muvaffaqiyatga intilishdir. Faol, raqobatbardosh va natijaga yoʻnaltirilgan jamiyatda inson oʻz qadrini koʻpincha erishgan natijalari, moddiy imkoniyatlari, ijtimoiy mavqei va taʼsir doirasi orqali baholaydi. Shu jarayonda hokimiyat, pul, mulk va ijtimoiy obroʻ muvaffaqiyatga erishish vositasi boʻlish bilan birga, muvaffaqiyatning tashqi mezon sifatida ham talqin qilinadi. Natijada shaxsning hayotiy maqsadlari tizimida moddiy resurslar va ijtimoiy ustunlikka erishish alohida qadriyatga aylanadi.

Muvaffaqiyatga intilish motivining tarixiy-madaniy ildizlarini tahlil qilganda, uning ayrim diniy asoslari protestant axloqi, xususan, kalvinistik dunyoqarash bilan bogʻliq holda talqin qilinganini koʻrish mumkin. Bu qarashlarga koʻra, insonning dunyoviy faoliyatdagi muvaffaqiyati uning ilohiy tanlanganligi va najotga loyiq ekanligining belgisi sifatida qabul qilingan. Natijada mehnat, tejamkorlik, intizom, tashabbus va iqtisodiy samaradorlik diniy-axloqiy mazmun kasb etgan. Keyinchalik ushbu qadriyatlar kapitalistik jamiyatning iqtisodiy va psixologik mexanizmlariga singib ketib, muvaffaqiyatni shaxsiy fazilat, ijtimoiy ustunlik va hayotiy yutuq ramziga aylantirdi.

Kapitalistik jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi subyektlaridan biri sifatida innovator-tadbirkor obrazi aynan muvaffaqiyatga intilish, tashabbuskorlik, tavakkalchilik va gʻalaba qozonish irodasi bilan bogʻliq holda shakllandi. Y. Shumpeter tadbirkorlik faoliyatini tahlil qilar ekan, foyda miqdori tadbirkor uchun faqat iqtisodiy natija emas, balki ramziy maʼnoga ham ega ekanini koʻrsatadi. Foyda bu yerda gʻalaba belgisi, muvaffaqiyat koʻrsatkichi va shaxsning oʻz kuchini tasdiqlash vositasi sifatida namoyon boʻladi. Shu jihatdan iqtisodiy muvaffaqiyat psixologik jihatdan shaxsning oʻzini namoyon qilishi, oʻz ustunligini isbotlashi va jamiyatda eʼtirofga sazovor boʻlishi bilan bogʻlanadi.

Muvaffaqiyat qadriyati zamonaviy kapitalistik jamiyatga yuqori darajadagi faollik, harakatchanlik va raqobat ruhini beradi. Bunday jamiyatda muvaffaqiyat insonning tugʻma maqomi, nasliy imtiyozi yoki dastlabki ijtimoiy mavqei bilan chegaralanib qolmasdan, u erishishi mumkin boʻlgan yangi ijtimoiy pogʻonalar, moddiy imkoniyatlar va ramziy ustunliklar bilan belgilanadi. Yaʼni muvaffaqiyat – bu insonning avvaldan berilgan holatdan chiqib, oʻz saʼy-harakati, strategiyasi yoki qulay imkoniyatlardan foydalanishi orqali yuqoriroq mavqega koʻtarilishidir. Aynan shu jihat zamonaviy jamiyatni oldingi anʼanaviy jamiyatlardan farqlab turadi.

Kapitalizmdan oldingi jamiyatlar dunyoqarashida muvaffaqiyatga individual intilish hozirgi maʼnoda ustuvor qadriyat hisoblanmagan. Anʼanaviy xristiancha ijtimoiy tasavvurda jamiyat ilohiy tartibning yer yuzidagi ifodasi sifatida talqin qilingan. Bu dunyoqarashga koʻra,

jamiyat ma'lum tabaqaviy tuzilishga ega bo'lib, unda "ibodat qiluvchilar", "jang qiluvchilar" va "mehnat qiluvchilar" o'zaro funksional birlikni tashkil etgan. Har bir tabaqa o'z vazifasini bajarishi, mavjud ijtimoiy tartibni saqlashi va unga rioya qilishi zarur deb qaralgan. Ruhoniy ma'naviy najot uchun, ritsar himoya uchun, dehqon esa moddiy ishlab chiqarish uchun mas'ul bo'lgan. Bunday modelda ijtimoiy fazilat shaxsning o'z maqomini o'zgartirishga intilishida emas, balki belgilangan o'rinda o'z burchini ado etishida ko'rilgan.

Shu sababli an'anaviy jamiyatda tug'ilishidan belgilangan ijtimoiy yo'ldan chiqishga intilgan shaxs ko'pincha ijtimoiy og'uvchi sifatida baholangan. Hatto quyi tabaqalarning iqtisodiy nochorligi va ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, mavjud tartib ma'naviy jihatdan barqaror va tabiiy holat sifatida qabul qilingan. Insonning hayotiy vazifasi ijtimoiy pog'onani keskin o'zgartirish emas, balki o'ziga berilgan maqom doirasida burchini bajarishdan iborat deb tushunilgan. Zamonaviy muvaffaqiyat ideologiyasi esa, aksincha, shaxsni mavjud holatdan qoniqmaslikka, yuqoriroq mavqega intilishga va o'z imkoniyatlarini doimiy ravishda kengaytirishga undaydi.

Zamonaviy jamiyatning nutqiy va madaniy amaliyotlari muvaffaqiyatni ustuvor ijtimoiy qadriyat sifatida mustahkamlab boradi. Ommaviy axborot vositalari, reklama, siyosiy nutq, biznes adabiyoti, biografik hikoyalar, motivatsion treninglar va ommabop psixologik qo'llanmalar muvaffaqiyatli inson obrazini ideal namuna sifatida shakllantiradi. Bu jarayonda muvaffaqiyat shunchaki shaxsiy yutuq emas, balki hayotning asosiy maqsadi, ijtimoiy tan olinishi va o'zini namoyon qilishning muhim mezoniga aylanadi. Natijada muvaffaqiyatga intilish shaxs xulq-atvorining yashirin dasturi sifatida uning dispozitsion tuzilmasining yuqori pog'onasida mustahkamlanadi.

R. Merton zamonaviy Amerika jamiyatining "yutuqqa yo'naltirilgan" madaniy modelini tahlil qilib, unda shaxsdan doimiy ravishda yuqori maqsadlarga intilish talab qilinishini ta'kidlaydi. Bu modelga ko'ra, barcha insonlar bir xil yuksak maqsadlar sari harakat qilishi kerak; bugungi muvaffaqiyatsizlik yakuniy mag'lubiyat emas, balki kelajakdagi muvaffaqiyat yo'lidagi vaqtinchalik to'siq sifatida talqin qilinadi; haqiqiy muvaffaqiyatsizlik esa intilishdan voz kechish yoki o'z maqsadlarini pasaytirish bilan bog'lanadi. Bunday madaniy model insonda doimiy raqobat, o'zini isbotlash va natijaga erishish ehtiyojini kuchaytiradi.

Hikoyalar, romanlar, gazeta va jurnal maqolalari, "qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin" mazmunidagi ommabop qo'llanmalar muvaffaqiyatli shaxsning ijtimoiy-madaniy namunasini ishlab chiqadi. Bunday matnlarda muvaffaqiyatga erishgan insonlar zamonaviy jamiyatning o'ziga xos "madaniy qahramonlari" sifatida tasvirlanadi. Ular mehnatsevar, jasoratli, tavakkalchi, imkoniyatdan foydalana oladigan, o'z yo'lini o'zi yaratgan shaxslar

sifatida ko'rsatiladi. Bu obrazlar jamiyat a'zolarining psixologik tuzilmasida "yutuqqa yo'naltirilgan" xulq-atvor tipini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muvaffaqiyat qadriyati bir tomondan jamiyatni faollashtiradi, insonlarga ijtimoiy va psixologik dadillik beradi, ularni tashabbuskorlikka, yangilikka va o'z imkoniyatlarini kengaytirishga undaydi. Biroq ikkinchi tomondan, muvaffaqiyatga haddan tashqari urg'u berilishi maqsad va vositalar o'rtasidagi axloqiy muvozanatni buzishi mumkin. Agar jamiyatda muvaffaqiyatning o'zi oliy qadriyatga aylansa, unga erishish vositalarining qonuniyligi va axloqiyliigi ikkinchi darajaga tushib qolish xavfi yuzaga keladi. Aynan shu nuqtada muvaffaqiyat ideologiyasi korrupsion xulq-atvor bilan kesishadi. Chunki korrupsioner uchun ham pul, lavozim, ta'sir va mavqe ko'pincha muvaffaqiyat belgisi sifatida idrok etiladi.

Muvaffaqiyat haqidagi tasavvurlar ichki ziddiyatli bo'lgani sababli, ular shaxsda kuchli intilish va psixologik tortishish uyg'otadi. Bir tomondan, muvaffaqiyat oqilona strategiya, hisob-kitob, intizom, mehnat va to'g'ri tanlangan yo'l natijasi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuvda inson muvaffaqiyatga o'z bilimlari, ko'nikmalari, rejaları va harakatlari orqali erishadi. Ikkinchi tomondan, muvaffaqiyat ko'pincha omad, qulay vaziyat, tasodifiy imkoniyat yoki "kerakli paytda kerakli joyda bo'lish" natijasi sifatida ham tushuniladi. Shu sababli muvaffaqiyat ratsional hisob-kitob bilan bir qatorda sirli joziba, tasodif va omad elementi bilan ham bog'lanadi.

Aynan mana shu ziddiyat muvaffaqiyatga intilish psixologiyasini kuchaytiradi. Inson bir vaqtning o'zida rejalashtirish, hisob-kitob qilish va mehnat qilish zarurligini angelaydi, biroq shu bilan birga noyob imkoniyatni kutadi, qulay vaziyatdan foydalanishga urinadi, ijtimoiy aloqalar va tasodifiy resurslarni ishga solishga harakat qiladi. Korrupsion muhitda esa bu holat xavfli shaklga ega bo'lishi mumkin. Chunki mansab vakolati, norasmiy tanish-bilishchilik, ma'muriy resurs yoki xizmat mavqei shaxs tomonidan "muvaffaqiyat imkoniyati" sifatida qabul qilinadi. Natijada korrupsion xatti-harakat oddiy qonunbuzarlik emas, balki "hayot bergan imkoniyatdan foydalanish" tarzida psixologik jihatdan oqlanishi mumkin.

**Xulosa.** Umumiy qilib shuni ta'kidlash mumkinki, korrupsion xulq-atvor shaxsning tug'ma jinoyatga moyilligi bilan emas, balki kasbiy ongning bosqichma-bosqich deformatsiyalanishi, manfaatparastlik motivining kuchayishi, mansab vakolatini shaxsiy foyda vositasi sifatida talqin qilish va ijtimoiy muhitda noqonuniy amaliyotlarning normallasuvi bilan izohlanadi. Davlat xizmatchisi faoliyatida qonuniylik, axloqiy mas'uliyat, jamoat manfaatiga sodiqlik va huquqiy madaniyat yetarli darajada shakllanmasa, korrupsion dispozitsiyalar barqarorlashadi. Shu sababli korrupsiyaning oldini olish faqat jazo va nazorat choralariga emas,

balki kasbiy ongni sogʻlomlashtirish, axloqiy immunitetni kuchaytirish, ijtimoiy masʼuliyatni rivojlantirish va davlat xizmatining qadriyatli asoslarini mustahkamlashga ham qaratilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Сатаров Г.А. Некоторые задачи и проблемы социологии коррупции И Россия и современный мир. 2003. № 4. С. 150.
2. Маркс К. Экономико-философские рукописи 1844 г. И Маркс К., Энгельс Ф. Соч. 2-е изд. Т. 1. С. 131.
3. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы. М., 1999. С. 403.
4. Ядов В.А. О диспозиционной регуляции социального поведения личности //
5. Методологические проблемы социальной психологии. М.: Наука. 1975. С. 97.
6. Гуревич А. Средневековый мир: культура безмолвствующего большинства. М., 1990. С. 30.
7. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура //Социологические исследования. 1992. № 2. С. 123.
8. Попова И.П. Маргинальность. Социологический анализ. М.: Изд-во «Союз», 1996. С. 31.